

OLTIN SANDIQ

# PATI, YULINGAN TOVUQ



Toshkent  
«Yangi asr avlodi»  
2006

**B**ir kuni erta bahorda Balakir otasi bilan o‘rmonga o‘tin terгани yo‘l olibdi. Yo‘l keng dala bo‘ylab o‘tgan bo‘lib, ular dalada bir ziqna, xasis, aldoqchi boy omochda qo‘sh qo‘shib yer haydayotganini ko‘rib qolishibdi. Boyning chiroyli, uzun-uzun yo‘lli, semiz, baquvvat otlari bor ekan.

Balakir otlarga qarab turib, dadasiga:



– Bu xasis aldoqchi boyda bunday otlarning bo‘lishi adolatdan emas. Bir amallab otlarni boydan tortib olish kerak, – debdi.



– Qanday qilib ularni olasan, o‘g‘lim?

– Dada, buning yoli juda oson, olib qo‘yaman – vasalom. Siz shu yerda o‘tirib meni poylab turing.

Balakhir shunday debdi-yu qishloqqa yugurib ketibdi.

Uyga keiib tovuqxonadan bir dona tovuqni ushlab yana ortiga qaytib kelib dadasini yoniga o‘tiribdi-da, tovuqni tiriklayin patini yulishga tushibdi. Tovuq bechoraning ozgina patini qoldirib, o‘zini esa yer haydayotgan xasis boyning oldiga shudgorga qo‘yib yuboribdi. Tovuq ham semizgina, yo‘l tanlamay to‘g‘ri boyning





oyog‘i ostidan o‘tib ketibdi. Buni ko‘rgran boyning ko‘zi dumaloq bolib, og‘zi ochilib qolibdi. Chunki bu qanaqa parranda ekanligiga tushunolmay qolibdi. Parrandani tutgisi kelibdi-yu, ammo otlarni nima qilishni bilmay hayron bo‘lib turganida xuddi yerdan o‘sib



chiqqanday yonida Balakir paydo bo‘libdi. Boy bolaga qarab:

– Ey, yaxshi odam , bu yoqqa kel , shu otlarimni ushlab tur, – deb iltimos qilibdi.

Buni kutib turgan Balakir yugurib borib otlarni uning qo‘lidan olibdi. Boy vaqtni boy bermay haligi pati chala yulingan tovuqning ketidan quva ketibdi. Balakir ham shu



paytda otlarni qo'shdan ajratib biriga o'zi, ikkinchisiga otasi minibdi-yu, bozorga qarab choptirib ketishibdi.

– Ana, ko'rdingizmi, dada, ziqnalik, xasislik nimalarga olib kelishini, birgina tovuqni deb ikkita chiroyli otidan ayrildi. Bu unga jazo, chunki bu otlar odamlarning pes-hona teri evaziga kelgan. O'zining mehnati singmagan.

## QUYONNING QUYRUG'I

*(Ukrain xalq ertagi)*

**B**ir kuni bir boyvachcha Pan o'z izvoshi bilan uzoq savdoga jo'nabdi. Ikkovi ham yo'lda hech gapirmay ketishibdi. Boyvachcha oxiri zerikibdi. Shu payt yo'lni bir quyon chopib kesib o'tibdi. Boyvachcha Pan quyondan gap ochib qolibdi.

– Shu desang, – deb gap boshlabdi boyvachcha, – mening o'rmonimda shunaqa quyonlar ko'payganki, haligi yugurib o'tgan quyonga o'xshab kichkina emas, balki katta-katta, ularni xoriждан olib kelganman, atayin ko'paytirgani. Bir kuni degin, ovga bordim. O'zim bilan o'n kishini oldim. Ular har tarafdin quyonlarni men tomon haydashga kirishdi, men bo'lsam faqat quyonlarni paq-puq...Bir nechtasini qulatdim, shu desang. Ularning ichida bittasi bor ekan, bah, shunaqa kattaki, naq qo'ydek keladiya! Tavba, terisini shunday shilgan-



imni bilaman, quyruqning o‘zi naq bir puddan ortiq  
chiqsa-ya. Ana, qanaqa mening quyonlarim.

Izvoshchi eshitib-eshitib, cho‘ jonivorlar, debdi otlari-  
ga, – chirigan ko‘prikka ham yaqinlashib qoldik.





Buni eshitgan Pan:

– Menga qara, Ivan, qanaqa quyonlar bo‘lmaydi deysan, to‘g‘ri bir puddan sag‘al kamroq edi, shekilli, – debdi.

– Hammaga ma‘lum quyon, quyon-da, – javob beribdi Ivan. Yo‘lda ketayotib boyvachcha Pan yana:



– Quloq sol, Ivan, aytgan ko‘priging qachon keladi?  
– deb so‘rabdi.

– Oz qoldi, Pan! – deb javob beribdi Ivan.

– U yog‘ini eshit, Ivan, haligi quyonda bir  
puddan kam emas, atigi besh-olti qadoq  
bo‘lsa kerak, menimcha.




– Menga nima, – debdi Ivan,  
– shunday bo'lsa bo'la qolsin.

Bir ozdan so'ng:

– Aytgan ko'prigingga ya-  
qinlashib qoldikmi? – deb  
so'rabdi boyvachcha.

– Ana ko'rinib qoldi, – deb-  
di Ivan.

– Bilasanmi, Ivan, haligi  
quyonda umuman quyruq-  
ning o'zi bo'lmagan, qanaqa  
quyruq bo'lsin quyonda?



– Hammaga ma'lumku, quyon-quyon-da, – debdi u kul-gancha. Arava ozgina ko'lmak suvdan o'ta boshlabdi.

– Aytgan ko'priging qani, Ivan? – so'rabdi Pan.

– Haligi aytib bergan quyonning quyrug'idek ko'prik ham erib ketibdi, Pan janoblari, – deb javob beribdi Ivan.



## TENGI YO‘Q LOFCHI

(*Turkman xalq ertagi*)

**Q**adimda bir ovulda tengi yo‘q lofchi yashagan ekan. Lofchi shu darajada lofni to‘qir ekanki, undan o‘zi ham mag‘rurlanib ketib dunyoda menga teng keladigani yo‘q deb o‘ylar ekan. Darhaqiqat, ovulda bunchalik hech kim lof to‘qiy olmas ekan. Kunlarning birida qo‘shni ovulda ham tengi yo‘q lofchi bo‘lib, uning to‘qigan loflari bundan ham o‘tar ekan, deb eshitib qolibdi, unga bu juda alam qilibdi. Mendan o‘tadigani bo‘lmasligi kerak, deb o‘ylabdi o‘zicha. Butun xalqni to‘plab, musobaqa o‘tkazib uni mag‘lub qilmoqchi bo‘libdi va qo‘shni ovulga qarab yo‘lga tushibdi.

Ovulga yetib kelib lofchi yashaydigan o‘tovni topib eshigini taqillatibdi. Ichkaridan olti-yetti yashar keladigan qizcha chiqib:

– Dadam yo‘q edilar, ishingiz bo‘lsa men aytib qo‘yaman, – debdi.

– Bilasanmi, men uning mislsiz loflarini eshitib, qoyil qolib minnatdorchilik bildirgani kelganimni aytib qo‘ysang bas! Unga atab katta turkman gilami olib keldim. Bu gilamning bir uchini hozir olib kelib qolishadi, ikkinchi uchi esa hali ovulimizda, men senga aytsam.

– Shunaqa deng juda zo‘r-ku, tezroq olib kelaqoling, shu desangiz uyimizdagi kichkina gilamchamizga o‘choqdagi bir cho‘g‘ tushib kuydirib qo‘ysa boladimi.

Gilamchamizda kichkina teshikcha paydo bo‘lib qoldi. Siz sovg‘a qiladigan gilam o‘sha gilamchamizdagi teshikni yamashga zo‘r yamoq bo‘lar edi-da, – debdi qizcha.





– Vo, ajabo! – o‘ylabdi lofchi kallasini changallab, – qiziki, shunchalik bo‘lsa, unda dadasi nimaga qodir ekanligi aniq. U yana uyaliq qolmay deb, o‘z ovuliga qaytib ketgan ekan.

